



BIZNES VA TADBIRKORLIK OLIY MAKTABINING RAQAMLI MUHITINI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI

*PhD, dots. **Valiyeva Nasiba Xadiyatullayevna**
O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi
Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi
ORCID: 0009-0001-6319-0978
vanasib@gmail.com*

*prof. **Alimov Baxodir Batirovich**
O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi
Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi*

Annotatsiya. Raqamli universitet sari intilish dunyo bo'ylab oliy ta'lim muassasalarning strategiyalarida o'z aksini topmoqda. Biznes va tadbirkorlik oliy maktabining hozirda mavjud elektron-raqamli muxiti tahlil qilinib uning raqamli funkcionallikning rivojlangani va raqamli univeritetning to'rtta elementlari mavjudligini asoslab berildi. Biznes va tadbirkorlik oliy maktabining raqamlashtirish strategiyasining to'g'ri amalga oshirish natijasida ta'lim muassasasining raqobatbardoshligi va imidj xarakteristikalarini ko'tarilishi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: raqamli ta'lim, strategiya, raqamli universitet, raqamli format, raqamli muxit, raqamli resurslar, raqamli platforma, raqobatbardoshlik.

ПЕРСПЕКТИВЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ЦИФРОВОЙ СРЕДЫ В ВЫСШЕЙ ШКОЛЕ БИЗНЕСА И ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА

*PhD, доц. **Валиева Насиба Хадиятуллаевна**
Высшая школа бизнеса и предпринимательства при
Кабинете Министров Республики Узбекистан,
проф. **Алимов Баходир Батирович**
Высшая школа бизнеса и предпринимательства при
Кабинете Министров Республики Узбекистан*

Аннотация. Тенденция к цифровому университету отражена в стратегиях высших учебных заведений по всему миру. В данной статье проанализирована современная электронно-цифровая среда Высшей школы бизнеса и предпринимательства, обосновано ее развитие, цифровой функционал и наличие четырех элементов цифрового университета. Авторы отмечают, что в результате правильной реализации стратегии цифровизации в Высшей школе бизнеса и предпринимательства возрастет конкурентоспособность и имиджевые характеристики учебного заведения.

Ключевые слова: цифровое образование, стратегия, цифровой университет, цифровой формат, цифровая среда, цифровые ресурсы, цифровая платформа, конкурентоспособность.

THE PERSPECTIVES OF IMPROVEMENT OF THE DIGITAL ENVIRONMENT IN THE GRADUATE SCHOOL OF BUSINESS AND ENTREPRENEURSHIP

PhD, assoc. prof. Valiyeva Nasiba Khadiyatullayevna
Graduate school of business and entrepreneurship under the
Cabinet of Ministries of the Republic of Uzbekistan
prof. Alimov Baxodir Batirovich
Graduate school of business and entrepreneurship under the
Cabinet of Ministries of the Republic of Uzbekistan

Annotation. *The tendency towards a digital university is reflected in the strategies of higher education institutions around the world. The current electronic-digital environment of the Higher School of Business and Entrepreneurship was analyzed and its development of digital functionality and the existence of four elements of a digital university were substantiated. As a result of the correct implementation of the digitization strategy of the Higher School of Business and Entrepreneurship, it is emphasized that the competitiveness and image characteristics of the educational institution will increase.*

Key words: *digital education, strategy, digital university, digital format, digital environment, digital resources, digital platform, competitiveness.*

Kirish.

XXI asrning xalqaro darajada insoniyatga va xar bir davlatning iqtisodiyotiga o'z salbiy ta'sirini ko'rsatgan koronavirus kassaligi, bir paytning o'zida katta ijobiy o'zgarishlarga turtki bo'ldi. 2020-yilgacha turli sohalarda ozmi-ko'pmi tadbiriq etilgan axborot texnologiyalari yordamida amalga oshirilgan ishlar o'z natijaviyligini ko'rsatgan edi. Ammo keng ko'lamli karantin sharoitida raqamli texnologiyalarni tadbiriq etish davr zaruriyatiga aylandi va ta'lim sohasi bu borada raqamli transformatsiyani jadallashtirdi. O'quv jarayoniga yangi multimedia texnologiyalaridan boshlab virtual va kengaytirilgan reallik texnologiyalarni faol kirib kelishi ro'y berdi. Tajribadan o'tgan bu raqamli transformatsiya jarayoni xar bir ta'lim muassasasi oldida katta imkoniyatlarni ochib berdi va xozirgi kunda raqamli ta'lim rivojlanishi kelajakda raqamli universitetlarning o'rni muhim ahamiyat kasb etishidan dalolat beradi. Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi misolida muassasaning elektron-raqamli muxitining komponentlari, zamonaviy muassasaning innovatsion sharoitlarining shakllanishi va raqamli ta'limning tadbiriq etilishining maktab samaradorligiga ta'sir ko'rsatishi asoslab berildi. Raqamli transformatsiya omillari taklif etildi: raqamli texnologiyalardan kundalik tarzda foydalanuvchilarning, yani "Homo informaticus" (Курбатов, 2017) yoki Net avlod (Tapscott, 2008) tinglovchilarga sharoit yaratish, raqamli ta'lim kompetensiyalarni rivojlantirib muassasaning ta'lim bozorida raqobatbardoshligini oshirish.

2020-yil 23-sentabrdagi O'RQ-637-sonli "Ta'lim to'g'risida"gi qonunning yangi tahriri va "Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" (Qonun, 2020) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori qabul qilinishi ta'lim sohasi modernizatsiya qilishni nazarda tutadi (Qaror, 2020). O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF 6079 sonli "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoniga binoan xozirgi kunda raqamli dunyoda raqamlashtirish, raqamli texnologiyalarni ishlab chiqish, raqamli iqtisodiyot sohasida yangi loyihalarni ko'rib chiqish va raqamli ta'limni rivojlantirish dasturlari amalga oshirilmogda (Farmon, 2020). Oliy ta'limning raqamli yo'nalishi yildan-yilga, rivojlanib boradi va 2035-yilgacha O'zbekistonda ommaviy onlayn ta'limga o'tish rejalashtirilmogda. Bu borada ta'lim sifatini oshirish, yoshlar bandligini ta'minlashga katta ahamiyat berilmogda. (Карабаева, 2023).

Adabiyotlar sharhi.

Ilmiy maqolada raqamli texnologiyalarning oliy ta'limga ta'sirini o'rganishga doir bo'lgan internetda mavjud ilmiy izlanishlar va nashrlarni empirik tahlili asosida va Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi (BTOM)ning raqamli muxitini tahlil qilish va taqqoslash asosida takliflar ishlab chiqilgan.

Oliy ta'lim muassasalar (OTM) axborot infratuzilmasining rivojlanganlik darajasi, fanlarning elektron ta'lim resurslari bilan ta'minlanganligi hamda o'qituvchilarning elektron xizmatlar va platformalardan foydalanishga ommaviy tayyorgarligi kabi dolzarb masalalariga ko'plab olimlar o'z ishlarini bag'ishlaganlar. Pritkov, Shneyderov, Migalevich (2020), Brodovskaya, Dombrovskaya, Petrova va b. (2019), Kondyukova, Shershneva, Savchenko, Leonov (2020), Kostina (2021), Pokamestov, Kondratyeva (2020), Priscilla (2016) va boshqa xorijiy olimlar axborotlashtirish va raqamlashtirish jarayoniga doir ilmiy ishlarni olib borgan.

Ta'lim jarayonida axborot texnologiyalarning uch avlodi keltiriladi:

1. Kompyuter (CBT – computer based teaching) va vebsaytlar yordamida o'qitish;
2. Tashkilotni, ta'limni (LMS – learning management system) va kontentni(mazmunni) (CMS – content management system) boshqarish tizimlari;
3. Raqamli fragmentlash va diversifikatsiya, ijtimoiy tarmoqlar, elektron portfoliyo yaratish maqsadida dasturiy ta'minot, MOOC (Massive open online course), o'zaro bo'g'liq sotish tizimlari va raqamli nashriyotlar (Костина, 2021).

Oliy ta'lim muassasalari ta'lim jarayonining muvaffaqiyatli raqamlashtirilishi ushbu uch avlod axborot texnologiyalarini takomillashtirishi bilan asoslanadi.

Mutaxassislar fikriga ko'ra "Raqamlashtirish akademik trend sifatida ko'riladi, uning potentsialidan to'liq foydalanish uchun ushbu trendning ommalashish jarayonining oqibatlarini baholash muhimdir" (Priscilla, 2016) Ilyinani (2017) ta'kidlashicha, raqamlashtirish o'qitishning yangi ta'lim paradigmalari va yondashuvlarining (masalan, e-Learning, Smart Education, bu talabalarga istalgan qulay vaqtda istalgan qulay joyda ta'lim xizmatlarini olish imkoniyatini yaratishni o'z ichiga oladi) (Ильина, 2017) paydo bo'lishiga sabab bo'ldi. Islambek Rustambekov (2023) so'zlariga ko'ra "Onlayn ta'lim platformalari, ijtimoiy tarmoqlar va mobil ilovalar kabi raqamli vositalardan foydalangan holda universitetlar talabalarni motivatsiya va jalb etadigan interaktiv hamda qiziqarli ta'lim tajribalarini yaratishi mumkin. Shuningdek, raqamlashtirish universitetlarga o'yin va virtual haqiqat kabi yangi o'qitish usullaridan foydalanish imkonini beradi. Bu usullardan talabalarga murakkab tushunchalar va nazariyalarni tushunishni osonlashtiradigan interaktiv ta'lim tajribasini yaratish uchun foydalanish mumkin. Talabalarning o'zlashtirish ko'rsatkichlarini oshirish, ularda zarur kompetensiyalarni shakllantirish orqali ishga joylashish ko'rsatkichlarini oshirish hamda turli vositalar orqali ma'lumotlarni yetkazish va tushuntirish usullarini qo'llagan universitetlar nufuzi oshishi hamda ularda mazkur imkoniyatlar yordamida qo'shimcha foyda olishi uchun shart-sharoitlar yaratilishi orqali boshqalarga nisbatan ustunlik shakllanadi."

Kondyukova, Shershneva, Savchenko, Leonovlarning (2020) ta'kidlashicha Raqamli ta'lim elementlarini yanada rivojlantirish zarurati, asosan, "raqamli inqilob" davrida tarbiyalangan va yangi antropologik tip - yangiliklardan xabardor odam "Homo informaticus" nomlanuvchi yosh avlodning ijtimoiy-madaniy xususiyatlari va ehtiyojlari bilan belgilanadi.

Zamonaviy davrda "raqamli universitet" tushunchasi faol joriy etilmoqda. **Raqamli universitet** deganda "raqamli iqtisodiyot sharoitlari va talablariga muvofiq tashkiliy, ilmiy va ma'muriy universitet faoliyatini ta'minlaydigan yangi uslubiy, axborot-ta'lim infratuzilmasi va raqamli texnologiyalar yondashuvlar majmui tushuniladi" (2020). Axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan ko'p bosqichli murakkab integratsiya muhiti mavjudligi, (Прытков и др., 2020) aralash shakldagi ta'lim va MOOC onlayn kurslari tarzda o'tkaziladigan onlayn ta'limni kengaytirish, ilmiy va ta'lim mazmunini raqamlashtirish, axborot xizmatlarini integratsiyalashtiruvchi onlayn platformalardan foydalanish kabi xususiyatlar "Raqamli universitet"ga xos. (Бродовская и др., 2019).

Neborskiy (2021) o'z izlanishida raqamli universitetni quyidagi integrativ metodologik konstrukt sifatida taqdim etib Raqamli universitet to'rtta o'zaro bog'liq elementlarning birikmasi deb ta'kidlaydi:

- raqamli format;
- raqamli muxit;
- raqamli resurslar;
- raqamli platforma.

Raqamli format – bu raqamli texnologiyalarni (qaysi shaklda o'zaro ta'sir sodir bo'ladi) va bir vaqtning o'zida tarkibni (o'zaro ta'sir akti nima, tarkibning o'zi) birlashtirish shakli.

Raqamli muxit - bu makon, joy (o'zaro ta'sir sodir bo'ladigan joy).

Raqamli muxit, birinchidan, universitetning kampusdagi texnik jihozlarini ifodalaydi - optik tolaning mavjudligi, barqaror yuqori tezlikdagi Internet aloqasi, simsiz Wi-Fi ulanishi, sun'iy intellekt bilan bog'liq narsalar interneti (aqli kampus) asosidagi avtomatik boshqaruv tizimlari, va boshqalar. Ikkinchidan, bu universitetning bulutli maydoni, uning raqamli platformasi va u bilan bog'liq raqamli resurslar. Texnik tomoni raqamli muxitning skeleti, ramka sifatida rol o'ynaydi, bulut tomoni esa uni to'ldirishni nazarda tutadi.

Raqamli manbalar raqamli universitet g'oyasini faollashtirish vositalaridir (ishtirokchilar foydalanadigan narsalar).

Bularga raqamli platformalar, ijtimoiy tarmoqlar, elektron kutubxonalar, veb-saytlar, ommaviy ochiq onlayn kurslar, turli interaktiv simulyatorlar, virtual ko'rgazma stendlari, ma'lumotlar bazalari va boshqalar kiradi.

Raqamli platforma - bu algoritm, raqamli universitet g'oyasini amalga oshirish usuli (o'zaro ta'sir qanday amalga oshiriladi) va shu bilan birga, o'zaro ta'sir platformasi (o'zaro ta'sir qanday tuzilmada amalga oshiriladi) (Неборский, 2021).

Kondyukova, Shershneva, Savchenko, Leonovlar (2020) fikriga ko'ra "raqamli funktsionallikning rivojlanishi (ta'lim muassasasining) ichki jarayonlari optimallashtirilgan yangi formatdagi ta'lim muassasasi sifatida "raqamli universitet" ga aylanish uchun kuchli turtki beradi." Ural Federal universitetining misolida mualliflar elektron-raqamli muxitini ko'rib chiqib qo'llash doirasiga qarab u yoki bu raqamli elementini quyidagi tizimlashtirishni taklif etadilar:

1. Ta'lim jarayoni;
2. Ilmiy soha;
3. Tashkiliy-boshqaruv soha;
4. Imidjni joylashtirish.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Raqamli muxit raqamli universitetning ahamiyatli elementlardan biridir, chunki muxit yaratilmasa universitetning raqamli deb nomlashga asos bo'lmaydi. Raqamli muxit bu muloqot amalga oshiriladigan makon. BTOMni bugungi kunda davlat va xususiy tashkilotlarning rahbar kadrlarga bo'lgan ehtiyojini qondiradigan mutaxassislarni tayyorlash va boshqaruv kadrlarni malakasini oshirish kurslarini taklif etadi. Iqtisodiyotni raqamlashtirish mutaxassislari, ishbilarmonlar va tadbirkorlardan yangi vakolatlarini egallashni talab qiladi (Валиева, Мухитдинова, 2020).

Zamonaviy bilim va ko'nikmalarni tinglovchilarga berish maqsadida hozirgi kunda BTOMda axborot kommunikatsiya texnologiyalarini yangilatmoqda. Zamonaviy standartlarga mos yangi yo'nalishlar ochilgan, o'qitish jarayoniga kredit modul tizimi joriy etilib milliy HEMIS platformasida ish yuritilmoqda. Yuqorida keltirilgan Ural universitetining olimlari taklif etgan tizim asosida BTOMning hozirda mavjud elektron-raqamli muxiti tahlil qilinib uning raqamli funktsionallikning rivojlangani va raqamli univertitetning to'rtta elementlari mavjudligini asoslab beradi (1-jadvalga qarang). Biroq shuni aytish lozimki bu elementlarni rivojlantirish darkor, chunki ularning hozirgi xolati raqamlashtirishning boshlang'ich darajasida.

1-jadval

BTOMning xozirgi elektron-raqamli muhiti

1.Ta'lim jarayoni	Qisqa muddatli kurslari(16ta) onlayn va yuzma-yuz shaklda o'tkaziladi, darslar Zoom texnologiyasi yordamida olib boriladi va Telegram kanalda yozib olingan videosi joylashtiriladi. Hemis platformasida ta'lim resurslarini joylashtiriladi, test sinovlari test.gsbe.uz platformasida o'tkaziladi, Smart doskalardan foydalanilmoqda.
2.Ilmiy soha	Maxsus raqamli texnik vositalari yordamida video aloqa orqali xamkor xorijiy muassasalari bilan konferensiya va vebinarlar o'tkaziladi.
3.Tashkiliy-boshqaruv soha	HEMIS platformasi, multimedia auditoriyalari va konferentsiya zallari; elektron qabul komissiyasi; o'quv binosida bepul simsiz internet, E-tinglovchi.gsbe.uz platformasida magistraturaga va qisqa muddatli yuzma-yuz va masofaviy kurslariga xujjatlarni topshirish mumkin. E-ijro platformasi yordamida tashkilotlararo xujjatlar almashinuvi amalga oshiriladi.
4.Imidjni joylashtirish	BTOM rasmiy sayti - rgsbm.uz/ru va gsbe.uz, youtube www.youtube.com/@graduateschooluz , telegram - @graduateschooluz, facebook- facebook.com/rgsbm.uz , instagram - instagram.com/rgsbm.uz ijtimoiy tarmoqlarda akkauntlarga ega, tinglovchilar uchun WiFi ulanish imkoniyati bor.

Manba: muallif tomonidan BTOMning xodimlari bilan savol-javob asosida shakllantirilgan.

Turli izlanuvchilarning maqolalari asosida xorijiy oliy ta'lim muassasalarining raqamli muxitini o'rganib quyidagi ma'lumotni keltiramiz:

✓ Amerika, Buyuk Britaniya, Xitoy va Yaponiyadagi oliy talim muassasalari masofaviy ta'limni ilgari surib talabalariga keng ko'lami interaktiv muloqotni: masofaviy imtixon topshirish, o'qituvchilardan onlayn maslaxat olish, va talabalarning shaxsiy kabinetlardan foydalanishni taklif etmoqdalar.

✓ Michigan universiteti, Gonkongning Xitoy universiteti va Britaniya Kolumbiyaning universitetlarining saytida ta'lim keyslari, boshqa o'quv uslubiy materiallar va semestr davomida kerakli ma'lumot joylashtiriladi.

✓ Xorijiy universitetlarning saytlarida o'quv videomateriallarini joylashtirish tajribasi qo'llaniladi. Rossiyaning universitetlarida ko'proq elektron kutubxonasi bo'limida o'quv darsliklar va qo'llanmalar joylashtirilgan (Бродовская и др., 2019).

✓ 360 formatida tahsil olish bu professional muxitda o'zini xis etish imkoniyati bo'lib, bebaho hisoblanadi. Bunday imkoniyat ClassVR xizmati yordamida tashkil etilishi mumkin. (Котенко, 2021) Chet ellik tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, talabalar ko'proq ma'lumotni saqlab qolishadi va VR mashqlarida qatnashgandan so'ng o'rganganlarini yaxshiroq qo'llashlari mumkin (Boulton, 2018) VR rivojlanishida turli platformalarda (misol uchun Rumii, Anyland, NeosVR, til o'rganish uchun mo'ljallangan AltSpace yoki Vtime) virtual ma'ruzalarni yaratish alohida yo'nalish bo'lib moliyaviy jihatdan qimmat hisoblansada yaqin kelajakda kontent ochiq muxitda joylashtirilsa o'qituvchilarga ham ta'lim muassasalari uchun ham eng qiziqarli ta'lim tajribasini keng tarqatilishi uchun imkoniyat bo'ladi va undan boshqa o'qituvchilar foydalanib o'rta ta'lim, maxsus ta'lim va oliy ta'lim darajasini ko'tarishi mumkin (Соснило, 2021).

Universitet siyosati uchun raqamli transformatsiya konturlari, o'z-o'zini diagnostika qilish va ularning modellaridan qat'i nazar, o'z strategiyalarini ishlab chiqish - ochiq manbali jamoat mulki yoki bozor mexanizmiga ega biznes modeli haqida tushuncha mavjud. (Неборский, 2021) Kondyukova, Shershneva, Savchenko, Leonovlarning (2020) fikriga qo'shilgan holda aytaolamizki, oliy ta'limni raqamlashtirish strategiyasini amalga oshirish natijasida ta'lim maskanining raqobatbardosh va mavqeyini oshiruvchi xarakteristikalarini ko'tarish, izlanish kompetentsiyalarni shakllanirish borasida professor- o'qituvchilar va talabalarning qiziqishini oshirish, umuman olganda universitetni xalqaro miqyosidagi ishtirokchi va mavqega ega reytinglarning namoyandasi sifatida faoliyatini samaradorligini

oshirish ko'zda tutilgan.

BTOMing professori Kenjabayev, Ne'matova (2024) muassasa faoliyatini istiqboldagi rivojlanishining **raqamli konsepsiyasini** keltirib ta'limga raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etish borasida amalga oshiriladigan bir qator vazifalarni belgilagan:

- ta'lim jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida masofaviy ta'lim xizmatlarini rivojlantirish, vebinar, onlayn, "blended learning", "flipped classroom" texnologiyalarini amaliyotga keng joriy etish;

- zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida masofaviy ta'lim dasturlarini tashkil etish;

- BTOMning konferentsiya materiallari, magistrlik va doktorlik dissertatsiyalaridan iborat ilmiy-texnik ma'lumotlar elektron bazasini yaratish, kelgusidagi ilmiy-texnik ma'lumotlar yangiligini ta'minlash maqsadida antiplagiat tizimidan foydalanishni keng joriy etish;

- ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklarining o'ziga xosligidan kelib chiqib, ta'lim jarayonida xalqaro miqyosda keng qo'llaniladigan zamonaviy dasturiy mahsulotlardan foydalanishni rivojlantirish;

- BTOMdan olinadigan turli hisobot va ma'lumotlar sonini keskin kamaytirish, ularni tayyorlashning qog'oz shaklidan voz kechish, boshqaruv tizimi va o'quv jarayonlari, kutubxona va hujjatlar aylanmasini elektronlashtirishni ta'minlovchi "HEMIS" platformasiga bosqichma-bosqich o'tish, ta'lim jarayoni ishtirokchilari faoliyati samaradorligini monitoring qilishning elektron tizimini joriy etish.

Kenjabayevning (2024) **raqamli konsepsiyasini** amalga oshirish BTOM uchun raqamli transformatsiyaning yagi bosqichlari hisoblanadi.

Shu o'rinda Knollning (2021) fikri ham ahamiyatga loyiq: "Raqamli universitet kontsepsiyasining bir qismi sifatida davlatlar va universitetlar talabalar (o'qituvchilar va xodimlar) shaxsiy ma'lumotlarini himoya qilish, ulardan tijorat va jinoiy faoliyatda foydalanmaslik, kiberxavfsizlik masalalarini hal qilish, xakerlik hujumlarining oldini olish va tizimning qulashi majburiyatini olishlari aniq. Bu, o'z navbatida, universitetlarning o'zlari uchun **tegishli me'yoriy-huquqiy bazani va mas'uliyatli siyosatni ishlab chiqishni talab qiladi**. Masalan, "ma'lumotlarni tejash" tamoyili qabul qilinishi mumkin".

Xulosa va takliflar.

Demak, oliy ta'lim muassasalarini raqamli universitetga aylantirish tendensiyasiga mos ravishda Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi raqamli universitetga xos xususiyatlarga ega. Xususan, raqamli muxitni yaratish uchun kerakli: *ta'lim jarayoni, ilmiy soha, tashkiliy-boshqaruv soha, imidjni joylashtirish* kabi elementlarni shakllantirmoqda. Bundan maqsad "Homo informaticus" (Kypбаров, 2017) yoki Net avlod (Tapscott, 2008) tinglovchilarga sharoit yaratish, raqamli ta'lim kompetensiyalarni rivojlantirib muassasaning ta'lim bozorida raqobatbardoshligini oshirish.

Tinglovchilar yuqori saviyali bilim, professional tajriba va ta'limga kiritgan sarmoyadan aniq daromad keltiradigan yuqori sifatli dasturlarni izlamoqda. Bu kabi talablarni qondirish uchun raqamlashtirish yordamida o'quv jarayoni va ta'lim faoliyatidagi sifat o'zgarishini amalga oshirish mumkin bo'ladi.

BTOMi o'z strategiyasini ishlab chiqish dolzarb bo'lib unda oliy maktabning raqamlashtirish siyosatini va uning huquqiy normativ-meyyorlarini ishlab chiqish kutilmoqda. Raqamli muxitni takomillashtirish masalasini ko'rib chiqib xorijiy oliy ta'lim muassasalari keng ko'lamli interaktiv muloqotni: masofaviy imtixon topshirish, o'qituvchilardan onlayn maslahat olish, va talabalarining shaxsiy kabinetlardan foydalanishni taklif etmoqdalar. Bundan tashqari Xorijiy universitetlarining saytida ta'lim keyslari, boshqa o'quv uslubiy materiallar va semestr davomida kerakli ma'lumot joylashtiriladi, videomateriallarini joylashtirish tajribasi qo'llaniladi, virtual reallik texnologiyalari tajribadan o'tkazilmoqda. Kenjabayevning (2024)

maqolasida keltirilgan konsepsiyasida oliy maktabni raqamlashtirish jarayonini takomillashtirish muhimligidan dalolat beradi. Raqamli muxitni ishlab chiqilgan strategiya asosida rivojlantirilsa muassasaning raqobqtbardoshlik va samaradorlik darajasi oshadi. Bizning olib borgan izlanish natijasida BTOMning raqamli muxitini takomillashtirish uchun va muassasaning samaradorligini va raqobatbardoshligini oshirish uchun quyidagilarni taklif etamiz:

1. BTOM maktabning strategiyasiga raqamli universitetga xos xususiutlarini maktabimizda takomillashtirish maqsadida huquqiy normalarni qabul qilishni nazardan qochirmaslik lozim;

2. Onlayn ta'lim platformalari, ijtimoiy tarmoqlar va mobil ilovalar kabi raqamli vositalardan keng foydalanib tinglovchilarning Net avlodini jalb etish bilan birga ularni dars davomida planshetlar bilan ta'minlash va virtual reallik texnologiyalarni tadbiq etish;

3. Raqamli ta'lim platformalarda taklif etiladigan o'quv kontentini doimiy yangilatib borish;

4. Ta'lim jarayoniga yangi texnologiyalar – multimedia texnologiyalaridan tortib virtual va to'ldirilgan reallik texnologiyalarigacha faol joriy etish.

Bu tadbirlarni izchillik bilan tadbiq etilsa, yani raqamli sharoit yaratilsa va raqamli ta'lim kompetensiyalarni rivojlantirilsa muassasaning ta'lim bozorida raqobatbardoshligini oshirish mumkin bo'ladi.

Adabiyotlar/ Литература/ Reference:

Boulton C.A. (2018) *Virtual learning environment engagement and learning outcomes at a 'bricks and-mortar' university* / C. A. Boulton, C. Kent, H.T.P. Williams // *Computers and Education*. – T. 126. – P. 129–142.].

Farmon (2020) *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabedagi PF 6079 sonli "Raqamli O'zbekiston 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora tadbirlari to'g'risida"gi farmoni;*

Kenjabaev A., Ne'matova M. (2024) *The numerical concept of the development of the activities of a high school /international journal of artificial intelligence (ISSN: 2692) Volume 04, Issue 03.*

Knoll, M. (2021) *Datability — Von Datensparsamkeit zu Datenfülle* / M. Knoll, K. Hildebrand — DOI 10.1365/s40702-014-0081-5 — Текст: электронный // *HMD Praxis der Wirtschaftsinformatik*. No. 51. S. 838–839. URL:<https://link.springer.com/article/10.1365/s40702-014-0081-5> (дата обращения 20.06.2021), *суть которого заключается в минимизации цифрового контента.*

Priscilla Ng (2016) *The digitalization of South Korea's education, IdeasXChange.*

Qaror (2020) *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 28.04.2020 yildagi PQ-4699-son.*

Qonun (2020) *"Ta'lim to'g'risida"gi qonunning yangi tahriri 2020-yil 23-sentabrdagi O'RQ-637-sonli.*

Rustambekov I. (2023) *Oliy ta'limni raqamlashtirish-ustuvor vazifa 28.03.2023* <https://kun.uz/35174404#!>

Tapscott D. (2008) *Growing Up Digital How the Net Generation is Changing Your World./D.Tapscott.-New York: McGrawHill. – 384 p.*

Бродовская Е.В., Домбровская А.Ю., Петрова Т.Э., Пырма Р.В., Азаров А.А. (2019) *Цифровая среда ведущих университетов мира и РФ: результаты сравнительного анализа данных сайтов // Высшее образование в России. Т. 28. № 12. С. 9-22. DOI: <https://doi.org/10.31992/0869-3617-2019-28-12-9-22>*

Валиева Н.Х., Мухитдинова Н.А. (2020) *Цифровизация обучения в школе бизнеса и предпринимательства. Рақамли иқтисодиёт: Ўзбекистонда ривожлантириш истиқболлари ва жаҳон амалиёти/Халқаро илмийғамалий онлайн конференция,*

Тошкент, 307-309 б.

Ильина О.П. (2017) *LMS Smart Education университета//Интеллектуальные и информационные технологии в формировании цифрового общества: сборник научных статей международной конференции/Санкт-Петербург, С. 170-174.*

Карабаева Г.Ш. (2023) *Формирование Стратегии Трансформации Образования в Эпоху Цифровизации материалы конференции «Основные Проблемы Обеспечения Качественного Образования И Пути Их Решения» Ташкент Издательство “Иқтисодчи” Отдел Координации Совместных Образовательных ПРОГРАММ www.tsue-jier.uz*

Кондюкова Е.С., Шершнева Е.Г., Савченко Н.Л., Леонов А.О. (2020) *ЦИФРОВОЙ УНИВЕРСИТЕТ: ФАКТОРЫ ТРАНСФОРМАЦИИ* Международный научно-исследовательский журнал № 10 (100) Часть 1 Октябрь DOI: <https://doi.org/10.23670/IRJ.2020.100.10.027>

Костина С.Н. (2021) *Готова ли инфраструктура региональных вузов к решению задач цифровой трансформации? Университетское управление: практика и анализ, 25(3) 14-32 <http://umj.ru>*

Котенко В.В. (2021) *Систематический обзор приложений, погружающих в мир виртуальной реальности, используемых при получении высшего образования: элементы дизайна, выработанные рекомендации и программа исследований Ученые записки университета имени П.Ф. Лесгафта. № 5 (195))*

Курбатов В.И. (2017) *«Homo informaticus» – человек информационной эпохи: характерологические черты / В.И.Курбатов, О.М. Папа // Гуманитарные, социально-экономические и общественные науки (научное электронное издание). – № 1.С.2*

Неборский Е.В. (2021) *Цифровой университет как интегративный методологический конструкт // Мир науки. Педагогика и психология, №3, <https://mir-nauki.com/PDF/41PDMN321.pdf> (доступ свободный). Загл. с экрана. Яз. рус., англ. DOI: 10.15862/41PDMN321, <https://mir-nauki.com/PDF/41PDMN321.pdf>*

Покаместов Д.А., Кондратьева А.А. (2020) *Проектное финансирование стратегии цифровой трансформации вуза//Научные труды Вольного экономического общества России. Т. 226, №6. С. 311-326*

Прытков В.А., Шнейдеров Е.Н., Мигалевич С. (2020) *Глобальная цифровая трансформация образования//Наука и инновации. № 6(208). С. 30-32.*

Соснило А.И. (2021) *Применение технологий виртуальной реальности (VR) в менеджменте и образовании // Управленческое консультирование. № 6. С. 158–163.*